

## IQTISODIY VA IJTIMOY GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISHI

Djumabaeva Salomat Komiljonovna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya kafedrası*

**Alixadjayeva Nazokat**

*Tabiiy fanlar fakulteti GIBA yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy jixatlari va tarixi yoritigan, mazmunga ko'ra iqtisodiy geografiyaga o'z xissasini qo'shnag olimlarning ishlari ham ko'rilgan bo'lgan ma'lumotlar o'zimizning yurtimizda ham qadimdan mavjud bo'lgan. Iqtisodiy geografiyani yoki unga asos bo'lgan fan yo'nalishlarining shakllanishida boshqa olimlarning xizmati ham sezilarli bo'lgan.*

**Kalit so'zlar:** *Iqtisodiy geografiya, sotsial geografiya, siyosiy va rekreatsiya geografiyasi, inson geografiyasi, evolyutsion jarayon, differentsiatsiya va integratsiya.*

**Ключевые слова:** *экономическая география, социальная география, политическая и рекреационная география, гуманитарная география, эволюционный процесс, дифференциация и интеграция.*

**Key words:** *economic geography, social geography, political and recreational geography, humanitarian geography, evolutionary process, differentiation and integration.*

Bu fan hududlarning nima bilan shug'ullanishi, xalq xo'jaligi tarmoqlarining tarkibi va ixtisoslashuvi, insonlarning mehnat faoliyatidagi geografik farqlarni o'rganadi. Mazkur fan joylarning xususiyati, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarining hududiy tarkibi va tizimini tadqiq qiladi. Iqtisodiy geografiyada u yoki bu hodisaning joylanishi, unga ta'sir etuvchi omillar, turli tarmoqlarning hududiy tashkil etish qonuniyatlari muhimdir. Bu fanning yana bir xususiyati shundaki, u mutaxassisni ayni vaqtda ham geograf, ham iqtisodchi bo'lishini talab qiladi, har bir narsani hudud orqali, hudud nuqtai nazaridan o'rganadi.

Masalan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning obyektini fan shakllangan davrlarda ma'lum bir mamlakat yoki hududning xo'jaligi va aholisi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining o'zgarishi bilan fanning obyektini ham o'zgarib, u xo'jalik va aholining hududiy tarkibi yoki tizimini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar (komplekslar) shaklini oldi. Shunga muvofiq ravishda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning vazifasi ham o'zgarib bordi: oldinlari qaysi hududlarda yoki rayonlarda nima borligini o'rganish asosiy vazifa sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi kunda esa nima uchun u yoki bu iqtisodiy-ijtimoiy voqea va hodisalar aynan shu joyda vujudga kelganligini ilmiy jihatdan asoslab, baholab va tahlil qilinishi talab etiladi.

Umuman olganda, "Iqtisodiy geografiya" tushunchasini dastlab buyuk rus olimi M.V.Lomonosov XVIII asrning 60-yillarida ishlatgan. Lekin fan sifatida keyinchalik boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Xorijda "Iqtisodiy geografiya" tushunchasini Y.G.Saushkin fikricha, birinchi bor 1882 yilda F.Ratselning shogirdi nemis V.Gots qo'llagan.

Iqtisodiy geografiya fani ta'rifini birinchilar qatorida nemis olimi Alfred Veber 1909 yilda bergan. Uning fikricha, bu fan hududlarning iqtisodiy xususiyatlari, funksiyasini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanishiga nazar solsak, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish muammolari dastavval Yevropada, xususan Germaniyada nemis olimlari I. Tyunen, A. Veber, A. Lyosh, V. Kristaller va boshqalar tomonidan ko'rib chiqilgan. Ammo, ular o'zlarining "joylashtirish" g'oyalarining natijasini "iqtisodiy geografiya" deb ta'riflashmagan. Iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanishiga nazar solsak, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish muammolari dastavval Yevropada, xususan Germaniyada nemis olimlari I. Tyunen, A. Veber, A. Lyosh, V. Kristaller va boshqalar tomonidan ko'rib chiqilgan. Ammo, ular o'zlarining "joylashtirish" g'oyalarining natijasini "iqtisodiy geografiya" deb ta'riflashmagan.

Ta'kidlash o'rinliki, "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" ta'rifini professor A.Soliyev shunday bergan. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlari o'rganadi". Olim qisqacha qilib esa, ijtimoiy geografiyani jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish to'g'risidagi fan, deya ta'riflagan. Chunonchi, professor A.Soliyev o'z fikrini quyidagilar orqali isbotlashga harakat qilgan. Jumladan, "turli mamlakat yoki rayon", "hudud" iboralar bo'lmasa, geografiyaga o'rin qolmaydi. Sababi, mana shu iboralarning mavjudligi yuqorida berilgan ta'rifning geografiyaga aloqadorligini bildiradi.

Mutaxassis olimlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy geografiyani ijtimoiy geografiya deb nomlashga ikkita sabab mavjud, birinchidan, fanning o'zini ichki rivojlanish doirasida kelib chiqqan qonuniyatlar, undagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlari bilan o'zaro bog'liq, ikkinchidan, ushbu fanning nomini jahonning rivojlangan mamlakatlardagi umumiy shakliga muvofiqlashtirish bilan izoxlanadi. Sababi, jahonning rivojlangan mamlakatlarida ushbu fan aynan shunday: ijtimoiy, gumanitar yoki inson geografiyasi nomi bilan rasman ataladi. Shuningdek, yana bir masalaga alohida e'tibor berish lozim. Ma'lumki, geografiyaning bosh maqsadi tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini va aloqadorlikni o'rganishdan iborat. Uning xususiyatlari haqida ko'plab olimlar fikr bildirib, iqtisodiy va sotsial geografiyani ijtimoiy geografiya shaklida ifodalagan. Masalan, sobiq Ittifoqda ham ushbu tushunchani Y.G.Saushkin, V.M.Goxman, S.Ya.Nimmik, M.D.Sharigin va boshqalar tomonidan ancha yillar oldin keng qo'llanila boshlangan edi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ham jamiyatning obyektiv ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Dastlab "iqtisodiy geografiya" iborasini buyuk rus qomusiy olimi M.V.Lomonosov ishlatgan. Biroq u davrda iqtisodiy geografiya fani shakllanmagan, faqat shunday atama yoki tushuncha paydo bo'lgan. Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi, uning asosiy tushunchalarini paydo bo'lishi va taraqqiyoti bilan sodir bo'lgan. Iqtisodiy geografiyaning "poydevorini" avvalambor, hududiy mehnat taqsimoti hamda iqtisodiy rayonlashtirish masalalari tashkil qiladi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaning tarixini, yuqoridagi ikki nazariy iboralar belgilab beradi. Jumladan, Y.G. Saushkinning takidlashicha, iqtisodiy geografiya faning tarixi - bu iqtisodiy rayonlashtirishdir. Agar ana shundan kelib

chiqadigan bo'lsak, iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishida rus olimi K.I.Arsenyevning xizmatlari ham buyuk bo'lgan, u 1818 hamda 1848 yillarda Rossiya federatsiyasini iqtisodiy rayonlarga ajratgan.

XVII asrda ingliz iqtisodchisi U. Pettining ham statistika to'g'risidagi asari chop ettirilgan edi. Uning bu asarida mamlakat siyosiy-iqtisodiy hayoti, dengiz kemachiligi va savdo-sotiq bilan bog'liq ma'lumotlarga, ularning tahliliga hamda ayrim qonuniyatlarga e'tibor qaratilgan. Petti statistikasining, aniqrog'i matematik statistikasining fanga yaqinligi ancha yuqori. Ma'lum bo'lishicha, nemis statistikasi so'ngra iqtisodiy geografiyaga, ingliz statistikasi esa avvalgi siyosiy iqtisod, hozirgi iqtisodiy nazariya fanlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, nemis statistikasi ta'sirida Rossiyada ham statistika va iqtisodiy geografiya fanlari shakllangan.

Shu boisdan, iqtisodiy geografiyaning fan sifatida tarkib topishi va rivojlanishi jamiyatning yuksalishi va taraqqiy etishi hamda ularning hududiy tomonlari o'zgarishlari bilan izohlanadi. Mavjud ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy geografiyaning shakllanishida, uning tarixiy zaminida 3 yo'nalish yoki omil asosiy sabab bo'lgan. Bu ham bo'lsa, eng avvalo, kameral statistika, shtandart nazariyasi va tabiiy geografiya.

Iqtisodiy geografiya fanining tarixiy rivojlanishi eng avvalo shu fanni o'qitish tizimini qay darajada tashkil etilganligi bilan bog'liq. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, respublikamizda ko'pgina fanlarni, masalan matematika, fizika, biologiya, o'zbek tili va adabiyoti kabi fanlarni o'qitish bo'yicha yirik ilmiy maktablar shakllangan. Biroq, bugungi kunda geografiya fanini o'qitish muammolari bilan sanoqli olimlar shug'ullanmoqda. Shu boisdan, ushbu fanning rivojlanishi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bilan parallel ravishda mazkur fanni o'qitish masalalari bo'yicha ham tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.

#### **REFERENCES:**

1. Komiljonovna, D. S. (2022). Methods Of Using Statistical Data In The Lessons Of Economic And Social Geography. Eurasian Research Bulletin, 4, 60-62
2. Djumabaeva Salomat Komiljonovna . (2022).International Canference on Modern Science and Scientific Studies Vol 1, Issue 2, November 19th 2022/ 83-90
3. Djumabaeva S.K. Муғаллим ҳем узликсиз билимлендири №2 2012 жыл № 3/1 - 2022 жыл ISSN 2181-7138 Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslaridastatistik ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasi 102-105 b.
4. Джумабаева С.К. Иқтисодий ва ижтимоий географиянинг назарий жиҳатлари ва тарихи./ Zamonaviy fan va ta'lim-tarbiya: muammo va yechimlar.474-476 бет.
5. Abdimurotov O.U. Geografiyadan masala va mashqlar. O'quv qo'llanma. - Toshkent, ZEBO PRINT, 2022. - 218 b.

6. Abdimurotov O.U. Umumta'lim maktablari o'quv atlaslari mazmunini takomillashtirish (5, 6 va 7-sinf atlaslari misolida) // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 56-jild. - Toshkent, 2019. - B. 158-161.

7. Djumabayeva S.K. The role and importance of Statistics in teaching Economic and Social Geography.// Electronic journal of actual problems of Modern / science, Education and training. December, 2021-12/2. pp. 94-97.

8. Подкасистого П.И. Педагогика // Учеб.для ВУЗов. Под ред. - М.: "Педагогическое общество России" 2002. - С. 18-22.

9. Matsaidova S. Maktab o'quvchilarida tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Dissertatsiya. - T.: 2008.-143 b.